

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

Hozirgi o`zbek adabiy tili fanidan

KURS ISHI

MAVZU: “O`zbek tilida kishilik olmoshlari”

2014-2015-o`quv yili

Bajardi: *2-kurs 02-guruh talabasi
Saidqulova Kamola*

Ilmiy rahbar: *dots.Nematova Y.*

**Kurs ishi O`zbek tilshunosligi kafedrasida komissiyasida himoya qilindi va
_____ ga baholandi.(Bayonnoma №_____ 2015 y.)**

Komissiya raisi: prof. Abdusaidov A _____

Komissiya a`zolari: _____

Samarqand – 2015.

O'zbek tilida kishilik olmoshlari.

Reja:

- I. Kirish.** O'zbek tilshunosligida kishilik olmoshining o'rganilishi.
- II. Asosiy qism.**
 - 1. Kishilik olmoshlarning ma'no turlari.
 - 2. Kishilik olmoshlarining turlanishiva unda ko'plik shakli.
 - 3. Kishilik olmoshlarining sintaktik vazifalari.
 - 4. Kishilik olmoshlarining so'zlashuv nutqi, rasmiy va ilmiy matnlarda qo'llanish xususiyatlari.
- III. Xulosa.**

Kirish

Respublikamiz prezidenti I.A.Karimov o'zining nutqlaridan birida shunday degan edi. "Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqish ortib bormoqda".¹ Bu so'zlar bevosita o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tadqiq etishga da'vat qiladi. Chunki ona tili – bu millatning ruhidir. Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida bu fikrni qayta-qayta ta'kidlab: "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi", - degan². Shuning uchun ham yurtboshimiz ona tilimizni rivojiga alohida e'tibor bermoqda. Yurtboshimizning sa'y-harakatlari bilan ona tilimizning ravnaqi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi xalqimiz ma'naviy-marifiy salohiyatining yanada yuksalishiga asos bo'lgan. Shu ma'noda bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning nutqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish faoliyatimizning tarkibiy qismiga aylandi.

O'zbek tili birliklarini (jumladan, barcha so'z turkumlariga oid lug'aviy birliklarni) fonetik, fonologik, morfonologik, leksik, semantik, stilistik, pragmatik jihatdan o'rganish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Binobarin, bu borada hal etilishi va chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan muammolar anchagina. Bugungi kunda bo'layotgan jamiyatlardagi o'zgarishlar, taraqqiyot tilimizda ham o'z aksini topmoqda. Tilning muhim elementi hisoblanadigan so'zning lingvistik tabiati, shakl va ma'no xususiyatlari, uning nutqiy jarayonda tutgan o'rni qadimdan tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda. So'zlarning inson, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat singarilarni ifodalashdagi o'ziga xos jihatlarini belgilash maqsadida ularni muayyan guruhlar va turkumlarga ajratgan holda tahlil etish borasida tilshunolar yakdildirlar.

O'zbek tili leksik-grammatik tizimida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan olmoshlar ham so'z turkumlari orasida mustaqil guruh sifatida e'tirof etib kelinmoqdaki, bu e'tirof ma'lum nazariya asoslarga ega.

So'z turkumlarining, jumladan olmoshlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi haqida S.Ashirboyevning «O'zbek tili grammatik qurilishining o'rganilish tarixidan (1875-1917 yillardagi rus turkologlari asarlari asosida)» mavzusida yozilgan

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelaajak йўқ.—Тошкент: Шарк, 1998. 3- бет.

²Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008, 83 – bet.

nomzodlik dissertasiyasi va J.Eltazarovning «Soʻz turkumlari haqida lingvistik nazariyalar» nomli monografiyasida maʼlumotlar batafsil berilgan³.

Ularda qayd etilishicha, XIX asrning 70-yillaridan boshlab chor Rossiyasi Oʻrta Osiyoni oʻziga boʻysundirgan va yangi mustamlakani boshqarish uchun yerlik aholining tilini oʻrganishi lozim boʻlgan. Shu maqsadda M.Terentyev, A.V.Starchevskiy, V.Nalivkin, S.A.Lapin, I.A.Belyayev, L.Afanasyev, N.Budzinskiy, N.Ostroumov kabilar sart (oʻzbek) tilini oʻrganishga oid qoʻllanmalar yozishgan. Oʻtgan asrning 30-yillaridan boshlab oʻzbek olimlari ham grammatikaga oid asarlar yarata boshladilar. Q.Ramazon va X.Qayumiy, X.Qayumiy va S.Dolimov, O.Usmon va B.Azizovlar ham muallifliklarida yaratilgan qoʻllanma va darsliklar shular jumlasidandir. Bu asarlarda olmoshlar haqida ayrim maʼlumotlar berilgan.

F.Kamol tahriri ostida nashr etilgan «Hozirgi zamon oʻzbek tili» (1957), A.N.Kononovning «Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika» (1960), M. Mirzayev, S. Usmonov, I. Rasulovlarning «Oʻzbek tili» (1962), mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan «Hozirgi oʻzbek adabiy tili. I tom» (1966), «Oʻzbek tili grammatikasi»ning akademik nashri (1975), «XV-XIX asrlar oʻzbek tili morfologiyasi» (1990)da ham olmoshlar mustaqil soʻz turkumlar sifatida alohida oʻrganilgan. Bu adabiyotlar roʻyxatini «XII-XIV asrlar turkiy adabiy yodgorliklar tili» (1986), Sh.Shoabdurahmonov va boshqalarning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (1980), M.Asqarova va X.Abdurahmonovlarning «Oʻzbek tili grammatikasining praktikumi» (1981), U.Tursunov va boshqalarning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (1992), B.Mengliyevning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (2004), M.Qurbonovanning «Hozirgi zamon oʻzbek tili» (2002), Sh.Rahmatullayevning «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» (2006) singari asarlari hisobiga davom ettirish mumkin.

Olmoshlar masalasi yoritilgan ilmiy manbalarni 3 guruhga ajratib qarash maqsadga muvofiq:

1. *Olmosh tarixiy nuqtai nazardan yoritilgan asarlar.* Oʻzbek tili tarixiy morfologiyasining ismlar silsilasida qaraladigan olmoshlar qadimiy turkumlardan boʻlib, ularning shakllanishi va taraqqiyoti Gʻ.Abdurahmonov va Sh.Shukurovning «Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi», A.N.Kononovning «Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika», J.Hamdamovning «Oʻzbek tili tarixi. II qism. Tarixiy morfologiya. Birinchi boʻlim» kabi asarlarda, H.Neʼmatovning

³Элтазаров Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. - Самарқанд: СамДУ, 1996. –128 б.

ayrim ishlarida tadqiqot obyekti bo'lgan hamda o'zining tegishli ilmiy-nazariy bahosini olgan.

O'zbek tilshunosligida olmoshlar tadqiqiga bag'ishlangan sezilarli ishlardan biri B.Yusupovning kuzatishlari bo'lib hisoblanadi. Olimning «Eski o'zbek adabiy tilida olmoshlar (XV-XVI asrlar)» deb nomlangan monografiyasida Alisher Navoiy va uning zamondoshlari asarlarida, XV-XVI asrlarda yuzaga kelgan yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan olmoshlarning barcha turlari aniqlangan va tavsiflangan. Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilgan va qo'llanilayotgan olmoshlarning asosiy leksik-grammatik hamda semantik farqlari, o'ziga xos xususiyatlari ishonchli dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

Muallif olmoshlar xususidagi u yoki bu fikrni tasdiqlash maqsadida XI-XII asrlarda yaratilgan yozma yodgorliklar hamda hozirgi o'zbek tili va uning shevalaridan to'plangan materiallardan qiyosiy foydalangan.

Rus va turkiy tilshunosliklar hamda o'zbek tilshunosligida olmoshlarni o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar B.Yusupovning monografiyasida tahlil qilingan va ularning ayrimlariga munosabat bildirilgan.

Monografiyada eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan olmoshlar *kishilik* (личные), *ko'rsatish* (указательные), *so'roq* (вопросительные), *o'zlik* (возвратные), *belgilash* (определительные), *gumon* (неопределенные), *inkor* (отрицательные) olmoshlari tarzida yetti turga bo'lib o'rganilgan va shu tartibda tahlil etilgan.

Tadqiqotga berilgan ilovalar ham ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Ilovalardan ma'lum bo'lishicha, XV-XVI asrlar eski o'zbek tilida ifodasini topgan 64 ta olmosh (*men, sen, ul, u, nimarsa, kimsa* va boshqalar), qayd etilgan davrda qo'llangan 48 ta olmoshning asli turkiy ekanligi, 9 ta arab tilidan o'zlashtirilgan (*jam'i, koffa, biajmaihim* va boshqalar), 7 ta fors-tojik tillaridan olingan (*hamin, hamon, tobakay* va boshqalar). Ilovalardan XV-XVI asrlarda qo'llangan olmoshlarning hozirgi o'zbek adabiy tilidagi shakllarining qiyosiy jadvali ham joy olgan.

U.Sanaqulovning doktorlik dissertasiyasida olmoshlar evolyusiyasi xususida ham so'z yuritilgan. Unda To'nyuquq, Kultegin, Oltin yoruq kabi yozma yodgorliklar tilida qo'llangan *bän* (*men*), *nä, kánty* (*kändy*), *o'z, qámug'-qamuq* (*hamma, barcha*), *alqu* (*hamma*), *anaqaya* (*ana-mana*), *sä-si* (*sen*), *γshyl, öshäl, shyl, γsh, oshny, äshny, nä-nä, nächyk, nälük, nätäk, nägu, nasha, qay, qach, qan, qanda, qayan* singari

olmoshlar tahlil qilingan. Ilovadagi 12-jadvalda VII-X asrlarda, 13-jadvalda XI-XIV asrlarning yodgorliklari tilida qo'llangan olmoshlar sanab o'tilgan⁴.

2. *Hozirgi o'zbek tilidagi olmoshlar maxsus tadqiq qilingan yoki olmoshlar masalasi ham tilga olingan asarlar.* Mazkur so'z turkumi monografik yo'nalishda ham o'rganilgan. Masalan, X.Komilovning «O'zbek tilida son va olmosh» asari va I.Suyarovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilida olmosh» mavzuidagi nomzodlik dissertasiyasi bu boradagi yirik tadqiqotlardan bo'lib hisoblanadi. Ushbu ishlarda olmoshlarning lingvistik tabiati, ayniqsa, grammatik xususiyatlari to'g'risida atroflicha mulohazalar yuritilgan, stilistik xususiyatlariga ham qisman to'xtalib o'tilgan.

O'zbek tili olmoshlari haqidagi ilk maxsus tadqiqot X.Komilova qalamiga mansub. Uning «O'zbek tilida son va olmosh» deb atalgan ishida olmoshlarning umumiy tavsifidan so'ng, ularning turlari haqida so'z yuritilgan va ular 6 ta deb ko'rsatilgan. Olmoshlarning monografik tadqiqi I. Suyarovning yuqorida tilga olingan tadqiqotida maxsus amalga oshirilgan. Mazkur dissertasiya bevosita olmoshlarning leksik-grammatik xususiyatlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Ammo I.Suyarovning bir mulohazasi aniqlik talab qiladi. Muallif olmoshlarning bir turi ayrim tilshunoslar (Q. Ramazon va X.Qayumiy, A.K.Borovkov, M.Mirzayev, S.Usmonov, S.Ibrohimov, I.Rasulov va boshqalar) tomonidan *kishilik olmoshlari* va boshqalari tomonidan (X.Komilova) *shaxs olmoshlari* deb nomlanganligini uqtirib, shunday xulosaga keladi: *shaxs olmoshlari* termini bu turdagi olmoshlarning xususiyatlariga har jihatdan mos keladi. Bu turdagi olmoshning *shaxs olmoshi* yoki *kishilik olmoshi* deb atalishi masalaning mohiyatini o'zgartirmaydi. Shu bois, ko'pchilikning fikrini va mustaqillikdan keyingi yangi Davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan barcha turdagi o'quv adabiyotlaridagi nomlanishni inobatga olib, *kishilik olmoshlari* terminini qo'llash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'zbek tilshunosligida olmoshlarning o'rganilishi va uning so'z turkumlari tizimida tutgan o'rni, tarixiy shakllari, olmoshlarning o'ziga xos xususiyatlari, tabiati, badiiy matnlarda uchrashi ayrim maqolalarda ham o'z ifodasini topgan. M.Asqarova, S.Ibrohimov, G'.Karimov, S.Muhamedov, M.Temirova, B.Ubaydullayev, U.Sharipova, Q. Mahmudov, H.Hojiyeva, D.Hakimova kabi tilshunoslarning maqolalari shular jumlasidandir.

⁴Санакулов У.С. Ўзбек ёзма адабий тили фонетик, марфологик меъёрларнинг шаклланиши ва таракқиёти (илк боскич): Филол.фанлари д-ри ...дис. автореф.- Тошкент, 2007. - 61 б.

3. *Olmoshlarning ayrim turlarining stilistik xususiyatlari yuzasidan fikr bildirilgan yoki ma'lum darajada yoritilgan asarlar.* Bu ishlar sirasiga R.Qo'ng'urov, S.Karimov, B.Isabekov, T.Akramov va N.Pozilovalarning maqolalari kiradi. Jumladan, R.Qo'ng'urovning «Olmosh stilistikasiga doir ayrim mulohazalar» nomli maqolasida kishilik, ko'rsatish, so'roq, belgilash, gumon olmoshlarining uslubiy xususiyatlari, ularning asosiy ma'nolari bilan bir qatorda qo'shimcha ma'nolar kasb etishi, bunday holat esa badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan.

O.Yusupovanning «O'zbek tilida olmoshlarning funksional-stilistik xususiyatlari» nomli dissertasiyasi o'zbek tilshunosligida olmoshlarning tutgan o'rni ularning funksional-stilistik xususiyatlarini tahlil etgan.

M.Hamroyevning «Hozirgi o'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlarining funksional – semantik xususiyatlari» nomli monografiyasi hozirgi o'zbek tilidagi ko'rsatish olmoshlariga bag'ishlangan bo'lib, unda olmoshning bu turi yangicha nuqtai nazar bilan talqin qilingan.

Ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilshunosligida mustaqil so'z turkumlaridan sanaladigan olmoshlar yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ularda olmoshning turlari aniqlangan, ma'noviy xususiyatlari yuzasidan kuzatishlar olib borilgan, mazkur so'z turkumini yaxlit hodisa sifatida tadqiq etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

O'zbek tilida kishilik olmoshlari

Olmoshlar ma'no jihatdan boshqa mustaqil so'zlardan ma'lum darajada farq qiladi. Ular predmet, belgi va miqdor ma'nolarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalamay, balki boshqa predmet, belgi va miqdor tushunchalari bilan bog'langan holda ifodalaydi. Olmoshning konkret ma'nosi kontekst, situatsiya – nutq protsessida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab konkretlashadi. Olmoshlar konkret ma'no bilan umum ma'noning almashinib qo'llanishini xarakterlovchi so'zlardir. Olmoshning muhim belgilaridan biri uning abstrakt va umumlashgan ma'nolarni ifodalashidadir: *Ular kim-u biz kim? U nimayu bu nima?* Shaxs, ikki predmetni ko'rsatgan. Olmoshlar ba'zi xususiyatlariga ko'ra sifatlarga va ayrim belgilarga ko'ra ravishlarga yaqin turadi. Shuning uchun ham ayrim tilshunos olimlarning uni olmosh-otlar, olmosh-sifatlar va olmosh-ravishlar deb alohida turkumlarga ajratishlari (A.A.Shaxmatov), ayrim tilshunoslar tomonidan ot xarakteridagi olmoshlargina "olmosh" turkumi ichida o'rganilib, ravish va sifat xarakteridagi olmoshlar to'g'ridan-to'g'ri ravish va sifatga (V.V.Vinogradov) kiritilishi bejiz emas. Hatto E.D.Polivanov olmoshni alohida so'z turkumi sifatida olmay, otga (aniqrog'i ot tarzidagi olmoshga) kiritadi.⁵

Boshqa turkum leksemalariga beriladigan so'roqni bildiruvchi va shunday leksemalar o'rnida ishlatiluvchi birliklarga olmosh leksemalar turkumi deyiladi. Olmoshdan leksik ma'no emas, balki mavhum grammatik ma'no anglashiladi.

Har bir lug'aviy leksemalar turkumining o'z so'roq olmoshlari bo'ladi:

- 1) ot so'roq olmoshlari: *kim-, nima-*;
- 2) sifat so'roq olmoshlari: *qanday, qanaqa, qaysi*;
- 3) son so'roq olmoshlari: *necha, qancha, nechtdan, nechanchi*;
- 4) ravish so'roq olmoshlari: *qachon, nega, nimaga, nechuk, qanday qilib, qay tarzda*;
- 5) fe'l so'roq olmoshlari: *nima qildi, nima qiladi, nima qilayotir*.

Olmoshlar ma'no va grammatik xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) Kishilik olmoshlari: *men, biz (I shaxs); sen siz (II shaxs); u, ular (III shaxs)*;
- 2) Ko'rsatish olmoshlari: *bu, shu, o'sha, mana shu, mana bu, ana shu* kabilar;
- 3) So'roq olmoshlari: *kim, nima, qanday, necha, qaysi, qancha, nega, qalay* kabilar;
- 4) O'zlik olmoshi: *o'z*;

⁵Аскарлова М. Олмошлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. -№4.-Б.27-30.

5) Belgilash jamlash olmoshlari: hamma, butun barcha, bari, har kim, har qanday (hech qaysi) kabilar;

6) Bo'lishsizlik olmoshi: hech kim, hech qanday, hech nima, hech qaysi kabilar;

7) Gumon olmoshlari: allakim, allaqanday, allaqaysi, kimdir, nimadir, allanima kabilar.

Shulardan kishilik olmoshlarini tahlil etadigan bo'lsak, olmoshning ushbu turi shaxslarga nisbatan ishlatiladi. Ba'zan kishilik olmoshlari shaxsni ifodalashi bilan birga, ko'rsatish ma'nosini ham bildiradi. Shunga ko'ra, kishilik olmoshlarini ikkiga bo'lish mumkun:

1. sof kishilik olmoshlari (men, sen, biz, siz);
2. kishilik – ko'rsatish olmoshlari (u, ular)sof kishilik olmoshlari faqat shaxsni ko'rsatuvchi, ular so'zlovchi va tinglovchini ifodalovchi olmoshlardir.

Kishilik – ko'rsatish olmoshlari esa (u, ular) kishilik bilan bir qatorda ko'rsatish olmoshi vazifasini ham bajaradi. Bu olmosh ot o'rnida qo'llanib keladi. – Otning o'rnini bosadi.

Kishilik olmoshlari – *men, sen, biz, siz* kishilik-ko'rsatish olmoshlari *u, ular* yuzasidan olib borilgan kuzatishlar bu elementlarning stilistik imkoniyatlari keng ekanligini ko'rsatdi. Masalan., *kamina, faqir, banda, benavo, mazlum, notavon, telba, shikasta, qul, haqir* kabi birliklar qadimdan *men* olmoshining sinonimlari bo'lib kelgan. Hozirgi adabiy tilimizda ular qo'llanilmaydi. Ammo badiiy uslubda, tarixiy mavzulardagi adabiy asarlarda ularga duch kelinadi: **Kamina** bu ishga qiblagohimdan bemaslahat qo'l urolmasmen. **Faqir** sizning nasihatlaringiz samimiy ekaniga shubha qilmasmen. **Bandayi** ojiz o'z pushtikamarimdan bo'lgan farzandim bilan urushmoqdamen, saltanat talashmoqdamen...**Faqiru haqir** sizday... (O.Yoqubov). Misollardagi ajratilgan so'zlar *men* bilan almashtirilganda, obrazlilik nuqtayi nazaridan kutilgan natijalarni olib bo'lmaydi. *Men* o'rnida biz qo'llanganda bir holatda maqtanish, manmanlik, g'ururlanish, g'o'dayish [*Shahzoda yana bir payola sharob quyib unga uzatarkan: - Ma, ich, amir, - dedi va kuldi. –Bilib qo'y, bizday amiralmo'minin qo'lidan yolg'iz sen may ichursen.* (O.Yoqubov)], ikkinchi bir holatda kamtarlik ma'nolarini [**Biz** boshqarish deb ataydigan faoliyat to'la safarbarlikni talab qiladi, bunda insoniy tajriba va intellekt mujassamlashgan. ("Menejment asoslari)] ifodalaydi hamda funksional jihatdan so'zlashuv, badiiy va ilmiy uslublarda chegaralanadi. *Men* o'rnida sen ham qo'llaniladi: *Bilmaydikim... yo'q, to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen?*(O.Yoqubov). Bunday qo'llanish so'zlovchining o'ziga-o'zi xayolan murojaat qilganida voqe bo'ladi.

Sen olmoshi ko'plik siz o'rnida keladi, ammo stilistik xususiyatlari unga –lar qo'shilganda namoyon bo'ladi. Mas., Yoshi kattalarga nisbatan qo'llanilganda hurmatsizlik va haqoratlash ottenkalari faqat shu yo'l bilan yuzaga chiqadi: **Senlarning** kasofatingga qoldim (T.Murod) –**Sening** kasofatingga qoldim – **Sizning** kasofatingizga qoldim. Bunda uch holatda uch ma'no ottenkasi mavjud. Matnda Gazablanish, mensimaslik, kamsitish ottenkalari ham shakllanadi: *Agarchi senlar shahzodadan qo'rqsanglar, u bilan o'zim olishamen!* (O.Yoqubov). **Senlar**, o'zi, qayerda o'sding? (T.Murod) kabi. Biz olmoshining 1-shaxs ko'plikni anglatish doirasidan tashqariga chiqishi semantik-stilistik ma'nolarni vujudga keltiradi. Uning *bizlar* shakli kamtarlik, mag'rurlik, manmanlik ottenkalarini ifodalaydi. Siz yoshi kichiklarga (ba'zan kattalarga ham) nisbatan qo'llanganda kesatiq, kinoya ottenkalari kelib chiqadi: **Siz ham odam bo'lib qoldingizmi, buni qarang-a!**kabi. *Uvaular* olmoshlari bilan sinonimik munosabatga kirishuvchi elementlar kuzatilmadi⁶

Kishilik olmoshlari nutq jarayonida uch xil shaxsni – I, II, III shaxslarni bildiradi. I – shaxs (men) – so'zlovchini, II shaxs (sen) - so'zlovchi murojaat qilayotgan shaxsni – tinglovchini, III shaxs (u) – nutq jarayonida ishtirok etmagan, so'zlovchi yoki tinglovchi eslatib o'tayotgan shaxsni yoki ko'rsatilayotgan predmetni ifodalaydi. Bular birlikni ko'rsatuvchi kishilik olmoshlaridir. Ko'plikda kishilik olmoshlaridan *biz* olmoshi bir qancha so'zlovchilarni emas, so'zlovchi boshqa shaxslarni, *siz* (II shaxs ko'plikdagi) olmoshi esa tinglovchini va boshqa shaxslarni bildiradi. Shunday qilib, *biz*, *siz* olmoshlari tarkibida I va II shaxs ishtirok etgan shaxslar to'dasini ifodalaydi.

III shaxs ko'plikdagi *ular* olmoshi so'zlash jarayonida ishtirok etmagan birdan ortiq boshqa shaxsni yoki predmetlarni ifodalaydi⁷. *Ular bizga yetib olishsin*. Kishilik olmoshlari ko'plik qo'shimchasi – “lar”ni olish bilan ko'plikni ko'rsatmaydi.

Men olmoshi – lar qo'shimchasini qabul qilmaydi. *Sen* olmoshi esa – lar qo'shimchasi bilan qo'llangandan, tinglovchi va boshqa shaxslarga qo'shimcha munosabatni yoki tinglovchini bir oz kamaytirish ma'nosini bildiradi: *Senlarga aytayapman* (*sen va boshqalarga aytayapman*). –lar qo'shimchasi III shaxs birlikdagi u olmoshiga qo'shib keladi: *u keldi – ular keldilar*. *Biz* va *siz* olmoshlariga qo'shilganda ma'nosini bir oz kuchaytirish ma'nosini shuningdek, so'zlovchi va boshqalar to'dasini – ko'plikni bildiradi. Egalik qo'shimchalari kishilik olmoshlariga, odatda qo'shib kelmaydi. Ba'zan III shaxs kishilik olmoshi ko'rsatish ma'nosida kelganda, otlashib egalik qo'shimchalari qabul qilishi mumkin:

⁶Хакимова Д. Сиз ва сен олмошларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,2003.-№5.-Б.77.

⁷Менглиев Б.Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши: Насаф, 2004. -171 б.

Kishilik olmoshlari kishilik qo'shimchalarining olib turlanishi mumkun. *Meni, uning, seni, sizda, sizga, ulardan* kabi. Kishilik olmoshlarining I va II shaxs birlik formolari tushum va qaratqich kelishigidagi bilan turlanganda bir *n* tovushi tushib qoladi: *menning, senni emas, meni – mening, seni – sening*⁸.

Kishilik olmoshlari ot olmoshlarning maxsus turi bo'lib, shaxs, son, o'zni bilan modal ma'nolarni ifodalaydigan quyidagicha paradigmani hosil qiladi:

	<i>men</i> ←→		<i>biz 1-</i>	<i>bizlar-</i>	↔	<i>biz 2 ∅</i>	
↕		↕	↕		↕		
	<i>sen-</i>	↔	<i>senlar-</i>	<i>siz 1-</i>	<i>sizlar-</i>	↔	<i>siz 2 ∅</i>
↕		↕			↕		
	<i>u ∅</i>	←→	<i>ular 1</i> ←→			<i>ular 2-</i>	

Kishilik olmoshlarining bu paradigmasida shaxs, son, o'zni bilan modal ma'nolarning ifodalanishi quyidagicha:

1) *men-*, *sen-* olmoshlarida shaxs va son ma'nosini olmosh asosining o'zi ifodalaydi. Tarixan shaxs ma'nosini bu olmoshlarning *m-*, *s-* qismi, son ma'nosini *-n* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar tarkibi ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

2) *biz-*, *siz-* olmoshlari ham xuddi shunday baholanadi: Tarixan shaxs ma'nosini *b-*, *s-* qismi, son ma'nosini *-z* qismi bildirgan bo'lsa ham, hozirgi o'zbek tilida bu olmoshlar ma'noli qismlarga ajratilmaydi.

3) *biz-*, *siz-* olmoshlari birlikni ifodalash uchun ham ishlatila boshlagani sababli, ko'plikni ochiq ifodalash maqsadi bilan bo'lsa kerak, bu olmoshlarga *-lar* ko'plik affiksini qo'shib ishlatish yuzaga kelgan. Bunday ishlatishda (*bizlar-*, *sizlar-*) *biz-*, *siz-* asoslari shaxs ma'nosini, *-lar* affiksi esa son ma'nosini ifodalaydi, demak, bu ma'nolarni olmosh tarkibidagi boshqa-boshqa qismlar bildiradi.

4) I, II shaxs olmoshlaridan farqli holda III shaxs olmoshi *u-* kishilik-narsa olmoshi deyiladi. Bu olmosh asli ko'rsatish olmoshidan o'sib chiqqanini hisobga olib, uni kishilik-ko'rsatish olmoshi deb baholash ham mavjud. Hozirgi o'zbek tilida *u-* II kishilik-narsa olmoshi bilan *u- I* ko'rsatish olmoshini omoifodalar deb qarash to'g'ri.

⁸Хожиева Х. Кишилиқ олмоши ва ҳурмат маъноси // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,2000.-№4.-Б.37-38.

u- kishilik-narsa olmoshining asosi I, II shaxs birlik kishilik olmoshlaridan farqli holda faqat shaxs ma'nosini bildiradi, son ma'nosini unga qo'shiladigan nol ko'rsatkichli morfema ifodalaydi; bu yerda nol ko'rsatkichli morfema shu olmosh asosiga ko'plik ma'nosini ifodalash uchun qo'shiladigan *-lar* affiksi bilan zidlashda belgilanadi: $u + \emptyset \leftrightarrow u + lar-$. Demak, III shaxs kishilik-narsa olmoshida shaxs ma'nosini asos, son ma'nosini esa grammatik ko'rsatkich ifodalaydi.

5) *biz- 2 – bizlar-, siz- 2 – sizlar-* munosabatida ham yuqoridagi kabi hodisani ko'ramiz: $biz\ 2 + \emptyset \leftrightarrow biz + lar-, siz\ 2 + \emptyset \leftrightarrow siz + lar-$.

Xullas: a) *men-* olmoshi-gina *-lar* affiksini olmaydi, demak, son shakllarida zidlanish yo'q, shunga ko'ra shaxs va son ma'nosini bu olmoshning asosi bildiradi; b) *sen- – senlar-, u- – ular- 1, biz\ 2 + \emptyset - bizlar-, siz\ 2 + \emptyset - sizlar-* zidlanishida shaxs ma'nosini olmoshning asosi, son ma'nosini morfema ifodalaydi; d) *senlar – sizlar* zidlanishida son (ko'plik) ma'nosi affiks yordamida ifodalanadi, modal ma'nodagi zidlanish ('senlash' - 'sizlash') olmosh asosidan anglashiladi; e) *biz- 1 – biz- 2, siz- 1 – siz- 2, ular- 1 – ular- 2* zidlanishida 'ko'plik' ma'nosi bilan ishlatilish birlamchi bo'lib, 'ko'plik' yakka shaxsga ko'chirib ishlatilishi natijasida 'birlik' ma'nosi yuzaga kelgan, bu 'birlik' ma'nosi modal ma'no bilan birgalikda ifodalanagan: *biz- 1* ('ko'plik') – *biz- 2* ('birlik + kamtarlik'), *siz- 1* ('ko'plik') – *siz- 2* ('birlik + sizlash'), *ular- 1* ('ko'plik') – *ular- 2* ('birlik + sizlash'); d) *biz- 1 – bizlar-, siz- 1 – sizlar- – senlar-* qatori sinonimiyaga – ko'plikning har xil ifodasiga teng⁹.

Kishilik olmoshi ot olmosh sifatida turlanadi. Bunda *men, sen* olmoshlariga qaratqich kelishigi affiksi *-ing* shaklida, tushum kelishigi affiksi *-i* shaklida qo'shiladi. Makon kelishiklari affiksi *u-* olmoshining *un-* (< *ul-*) shakliga qo'shiladi.

Hozirgi o'zbek tilida kishilik olmoshlariga nisbatlovchi qo'shilmaydi. Kishilik olmoshlarining so'zlashuv tilida saqlanib kelayotgan *manim, saning, uni* (shuningdek *bizim, sizing*) shakllari oxiridagi qo'shimchalarni nisbatlovchilar deb talqin qilish ham mumkin. Unda *menim kitobim* kabi birikmaning har ikki a'zosiga aslida ayni bir nisbatlovchi qo'shilgan bo'lib chiqadi¹⁰.

Olmoshlarda leksemashakl qoliplari ular qaysi turkum olmoshi ekaniga bog'liq holda voqe bo'ladi. Jumladan, kishilik olmoshlarida o'ziga xos leksema shakllar qolipi tizimi mavjud.

Ot olmosh bo'lgani uchun kishilik olmoshlari turlanadi. Son ma'nosi *men-, sen-, biz- 1, biz- 2, siz- 1, siz- 2* olmoshlarida asosning o'zi bilan, *senlar-, bizlar-, sizlar-*

⁹Суяров И. Биз ва сиз олмошларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1963. - №5. - Б.37-43.

¹⁰Миртожиев М. Ҳозирги ўзбек тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - 168 б.

olmoshlarida esa affiks bilan ifodalanadi, shunga ko‘ra bu olmoshlarda leksemashakl qolipi ikki xil: a) "leksema + Tr": *Siz ketave- ring* kabi; b) "leksema + lar + Tr": *sizlardan ayrilib* kabi.

Grammatik ma'no ko‘makchi bilan ifodalansa, leksemashakl qolipi quyidagicha tus oladi: "leksema + (Tr + ko‘makchi): *Men bilan gaplashasiz* kabi.

Bu olmoshlar kesim vazifasida kelsa, "leksema + Tr + Ts" qolipi voqe bo‘ladi. Masalan, quyidagi misollarda *siz-* olmoshi *bo‘l-* bog‘lamasi qatnashgan holda kesim vazifasida kelgan: *Tashkilotning rahbari siz bo‘lasizmi? Ixtiyor menda bo‘lsa, ..kabi.*

Ushbu tur olmoshlarga *-niki* morfemasi qo‘shilsa, "leksema +*niki* + Tr" va "leksema +*niki* + Ts" qoliplari namoyon bo‘ladi: *biznikiga ketamiz; Bu kitoblar – meniki* kabi.

Bunday olmoshga *-dagi* morfemasi qo‘shilsa, "leksema +*dagi*", "leksema +*niki+dagi*" qoliplari voqe bo‘ladi: *mendagi, biznikidagi* kabi¹¹.

Kishilik olmoshiga ba'zan *-siz* inkor morfemasi ham qo‘shiladi, bunda leksemashakl qolipi "leksema + S + siz" tarzida voqe bo‘ladi: *Sensiz || Senlarsiz ne tashvishlar tushdi boshimga!*kabi.

III shaxs kishilik olmoshida son ma'nosi morfema bilan ifodalanadi, shunga ko‘ra "leksema + S +Tr" qolipi namoyon bo‘ladi: a) *U tavakkal qilib, uning oilasi, uni yotoqqa boshladi* kabi; b) *ular ko‘pchilik emas edi, ularning dilida, ulardan sado chiqmadi* kabi.

III shaxs birlik kishilik olmoshiga makon kelishigi affiksi qo‘shilganida bu olmosh *un-* shaklida qatnashadi; demak, bu yerda leksema asosi bilan affiks orasida zich sintagmatik munosabat namoyon bo‘ladi: makon kelishigi affiksi bu olmoshning azaliy shaklida kelishini talab qiladi, lekin *ul-* emas, *un-* shaklida ishlatiladi: *undan ancha keyin, unga qiyo boqib* kabi.

Ko‘makchi qatnashsa, leksemashakl qolipi quyidagicha tus oladi: "leksema + S + (Tr + ko‘makchi)": *u bilan kengashib, ular uchun yangilik emas* kabi.

Kishilik olmoshlari ot o‘rnida kelib, otning so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Shu sababli uning grammatik xususiyatlari ko‘p jihatdan otlarning grammatik xususiyatlariga o‘xshaydi. Ular otlar kabi turlanadi. Turlanganda ularning tarkibida fonetik o‘zgarish yuz beradi, *men+ ni = meni, sen+ning=sening* tovush tushushi yuz beradi. U kishilik olmoshiga jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kishiliklari qo‘shilganda bitta “n” tovushi orttiriladi, unga, unda, undan¹².

¹¹Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология - Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. – 164 б.

¹²Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 235 б.

Kishilik olmoshlari otlar kabi gapning bosh bo'laklari, ikkinchi darajali bo'laklari vazifasida keladi. *Men dunyoga kelgan kundayoq vatanim deb seni, uyg'ondim.* (H.Olimjon. 10 tomlik, birinchi tom, 217-bet). *Xudo bergan bu jannat bag'riga to'yib-to'yib qolmagan gumroh mendirman.* (T.Sodiqova. Yoningdagi baxt. 20-bet). *Menda qanday gunoh bo'lsin. Bir bezavon jonivorman* (S.Ahmad.Qorako'z majnun, 65-bet). *Hammayoqda shodiyona, o'yin-kulgu, faqat mening ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi.* (U.Nazarov. O'zgaralar uchun, 13-bet).

Ma'lum bo'ladiki, olmoshlarning faol qo'llanishi stilistik ma'no ottenkalari ko'lamining kengayishiga sabab bo'ladi. Ularning nutqda konkretizatorlik – aniqlashtiruvchilik va aktualizatorlik vazifalarini ado etishi, deprenominalizatsiyalashib, ravishlar va yordamchi so'zlar bajaradigan vazifalarni bajarish buning dalilidir¹³.

A.N.Gvozdev Kishilik olmoshlar o'zlarining asosiy vazifasidan tashqari turli vaziyatlarda yuzaga keladigan emosional-ekspressiv ottenkalarga boyligi bilan ajralib turishini qayd etgan. O'zbek tilida *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi kishilik olmoshlar qadimdan ishlatilib kelinmoqda. Mazkur olmoshlarning adabiy tilda me'yorlashgan shakli bilan bir qatorda ularning variantlari ham xilma-xil funksional-uslubiy vazifalarni ado etadi.

Jumladan, *men* orqali so'zlovchining o'zini bildirishi ushbu olmoshning asosiy kommunikativ vazifasi sanaladi: ***Men*** *dunyoga kelgan kundanoq, / Vatanim deb seni, uyg'ondim* (H.Olimjon). Ayrim hollarda ularning gap tarkibida ishtirok etishiga stilistik zarurat seziladi. ***Men*** *ham orom olay hyech qursa bir bor, / Uka, yomonlama menga birovni* (A.Oripov). Bandning birinchi misrasidan olmoshni olib tashlash mumkin bo'lgani holda, ikkinchi misrasida bu ishni amalga oshirib bo'lmaydi. Nutqning kimga qaratilganligi noaniq bo'lib qoladi.

So'zlashuv nutqida, ba'zan badiiy matnlarda bu so'zning *man* shaklida ishlatilishini adabiy me'yorning buzilishi deb qarash lozim bo'ladi. Ammo M.Yusuf ijodidan olingan mana bu parchada u *oshiqman* dagi *man* ga hamohanglikda qo'llangan: *Devona oshiqman, man bir devona, / Ayting, sizdan bo'lak kimim bor ekan?* (M.Yusuf).

Man shaklining mumtoz adabiyot namunalarida faol qo'llanilganligi uning eski o'zbek tilida *men* olmoshi bilan bir qatorda ishlatilganligidan dalolat beradi. A.Oripov esa uni muhim stilistik vazifani bajarishga bo'ysundirgan: *Faqat ojiz qalamim manim,*

¹³Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф.-Самарқанд, 2011.-26-б.

/ *O'zbekiston vatanim **manim*** (A.Oripov). Aslini olganda bu shakl tarixan mavjud bo'lgan. J.Hamdamov «O'zbek tili tarixi» asarida quyidagi fikrlarni keltirgan. «Qaratqich kelishigi qo'shimchasi *im* shaklida XIII-XIV asrlarda yaratilgan yozma asarlarda uchraydi. **Manim** singlim. (Tafsir)» [125, 20] J.Hamdamov bu qo'shimcha aslida o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga mansubligini, hozir ham turk, ozar, turkman kabi tillarda adabiy me'yor sifatida faol ishlatilishini aytib o'tgan. A.Qodiriyning «O'tkan kunlar» asarida ham Kumush, Otabek, Oftob oyim, O'zbek oyim, Mohira oyim kabi qahramonlar tilida *manim* shakli uchraydi. Mas., *Men o'zimning bu maktubimni ko'z yoshlarim bilan yozamen. Negaki hozirda **manim** yolg'iz ko'z yoshlarimgina emas, butun borlig'im siyohdir. **Manim** holim senga kulgilimi, qizim. Axir **manim** ham o'zimga yarasha obro'm bor* (A.Qodiriy). Bu asarda o'sha davr tili aks etgan bo'lsa, A.Oripov esa mening so'zini qofiya talabi bilan, ohangdorlikni vujudga keltirish uchun *manim* tarzida qo'llagan. Misoldagi *man* olmoshi *men* ga almashtirilsa, she'rdagi shu ohangdorlik o'zgaradi: *Faqat ojiz qalamim **menim**, / O'zbekiston vatanim **menim***. Biroq bu tarzda ishlatilish ham asarlarda kuzatiladi. *Nahot sen-chun topilmas, **menim**, Bironta uy azim shahardan?* (M.Ali)

Men va *man* variantlari tilda fe'l tarkibida shaxs ko'rsatkichlari sifatida ishtirok etishida buning teskarisi kuzatiladi: *bora+man, kuta+man, kula+man, yig'lay+man* kabi. Badiiy, xususan, tarixiy-badiiy asarlarda bu so'zlar *bora+men, kuta+men, kula+men, yig'lay+men* tarzida qo'llanishi adabiy me'yorning buzilishi deb emas, balki tarixiy voqyealar ifodalangan davr ruhini beruvchi me'yoriy holat sifatida qabul qilinadi: – *Qo'rqma, inim, a'lohzatlari chaqiribdurlar. Tezda **qaytamen*** (O.Yoqubov) singari¹⁴.

Sen olmoshi hozirgi adabiy tilda so'zlovchining o'zidan kichik shaxsga¹⁵ yoki o'ziga yaqin kishiga nisbatan qo'llanadi: ***Sen** o'sha-o'shasan, dilkashu mo'min.* (M.Yusuf). *Do'stginam, xayolan quchaman **seni**, / Xazon davrasida kutaman **seni*** (A.Oripov) kabi.

Sen olmoshining *san* varianti so'zlashuv nutqiga xos va bu variantning qo'llanilishini ham adabiy til me'yorining buzilishi sifatida qaraymiz. Bu elementning fe'l tarkibida kelishi xuddi *men* dagi singaridir.

¹⁴Суяров И. Шахс олмошларининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1964. - №2. - Б.33-37.

¹⁵*Сен* олмошининг ўзидан ёши кичикларга нисбат қўлланишида ҳозирги ўзбек тили меъёри назарида тутилади. Тарихан эса бошқачароқ бўлган. М.Кошғарий, *сан* сўзини турклар кичикларга, хизматчиларга айтишини, ўғузлар эса аксини қўллаб, катталарга *сен*, кичикларга *сиз* дейишини айтган.

Badiiy nutqda personaj nutqini individuallashtirishda qo'l kelishi, o'rni bilan hurmat, mensimaslik, piching, istehzo va boshqa turli xil ottenkalarni ifodalashi mumkin: **San** – o'g'limsan. – Yo'lchiga mehr bilan tikildi chol (Oybek).

Ba'zi manbalarda *men* hamda *sen* olmoshlariga ko'plikning *-lar* qo'shimchasi qo'shilishi mumkinligi haqida so'z yuritiladi. I.Suyarov esa nomzodlik dissertasiyasida shunday deb yozgan edi: «Rus tilida ikkinchi shaxs birlik olmoshi (*ty*) haqiqatda ham ko'plik ko'rsatkichiga ega emas. Lekin o'zbek tilidagi *sen* olmoshiga nisbatan bu fikrni aytolmaymiz. *Sen* olmoshi ko'plikni bildiruvchi *-lar* affiksi bilan qo'llana oladi va bunday hollarda so'zlovchi nutqi qaratilgan shaxsning (tinglovchining) ko'pligi yoki tinglovchi va o'zganing gruppasiga (kollektiviga) mansub bo'lgan shaxslar ko'rsatiladi¹⁶.

Aslida semantik-grammatik nuqtai nazardan *sen* bilan birga *-lar* ning qo'llanilishi maqsadga muvofiq emas. O'zbek tilida birdan ortiq kishilar jamoasi ko'pchilik sanaladi va ularga nisbatan qo'llaniladigan olmosh (*siz*) o'zbek tilida mavjud. Stilistik jihatdan esa bu fikrni aytib bo'lmaydi. Chunki aynan *senlar* tarzida qo'llanilishiga nutqiy vaziyat nuqtai nazaridan yo'l qo'yiladi – murojaat qilinayotgan kishilar so'zlovchidan yosh jihatdan kichik va ular ko'pchilikni tashkil qiladi: *Otdan sakrab tushdi-da qizlarga: «Senlar boraveringlar», - deb meni dugonalarimdan ajratib oldilar* (O.Yoqubov). Demak, uning bu tarzda qo'llanishida funksional chegaralanish mavjud. Bu – masalaning bir jihati. Ikkinchidan, u matnda qo'shimcha stilistik ottenka ifodalashi ham mumkin. Masalan, mensimaslik ma'nosi: *Kun choshka bo'lib ketdi-yu, qo'ylarni bozordan qoldirib, senlar salqinda yotibsan, itdan tuqqanlar* (G'.G'ulom).

Men olmoshining ko'plikni ifodalovchi *-lar* qo'shimchasini olishi mumkinligi to'g'risidagi gap ham adabiy til me'yori nuqtai nazaridan mantiqqa zid ekanligi tushunarlidir. Ammo Surxondaryo shevalari bo'yicha kuzatishlar olib borgan X.Alimurodov qo'ng'irot shevasida *men+lar* birikuvining mavjudligi haqida ma'lumot beradi va «Bunda men va menga o'xshagan yakka, oddiy kishi ma'nosi anglashilib, *-lar* ekspressiv ottenka bildiradi», degan fikrni aytadi: *Mennərdiñ aytqanymdy qymaydi* kabi¹⁷. Ushbu fikrni tahlil qilgan va faktlarni sinchiklab o'rgangan A.Ishayev esa: «Qo'ng'irot (Surxondaryo) shevasidagi *mennər* formasi boshqa o'zbek shevalarida, umuman boshqa turkiy tillarda uchramaydi. Bu forma

¹⁶Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф.-Самарқанд, 2011.-26-б.

¹⁷Алимуродов Х. Сурхондарё область қўнғирот шеваларида қўплик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1974. -№4. -Б.65-67.

analogiya bo'yicha (*sennarga o'xshash*) vujudga kelgan bo'lib, u so'zlovchining o'ziga nisbatan hurmatini, ba'zan esa mag'rurlik, manmanlik ma'nolarini ifodalaydi», - deydi¹⁸.

Aynan qo'ng'iro't shevasida so'zning olim ta'kidlagan stilistik ottenkalari bo'lsa bordir. Ammo qayd etilganidek, ushbu shaklning boshqa biror joyda yoki sheva va tilda uchramasligi uni hatto qo'ng'iro't shevasi doirasida me'yoriy holat deb baholash, barcha qo'ng'iro'tliklar tilida *menlar* olmoshining qo'llanishi, bu qo'llanishda turli xil stilistik ma'nolar anglashilishi haqidagi fikr kishida shubha tug'diradi.

U - bu olmoshning ilmiy adabiyotlarda ham shaxs, ham ko'rsatish xususiyatlari mavjudligi haqida ma'lumotlar beriladi. Uning bir necha variantlari bor va ularning qo'llanishida Funktsional uslublararo chegaralanish mavjud. Bu xususiyat tarixan ham bo'lgan, masalan, *u* ning *ul* shaklini eslaylik. Bu shakl hozirda faqat badiiy uslubdagina saqlanib qolgan: *Daryolarning ul yuzida uylaringiz, / Oqarishib ko'rinadi bo'ylaringiz* (Qo'shiqdan).

Darhaqiqat, mazkur olmoshning poetik nutqda eng faol varianti *ul* shaklidir. O'TILda unga *esk.* (eskirgan) belgisi qo'yilgan. Adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bu to'g'ri. Ayni paytda, u poetik nutqda yashab kelmoqda. Bunda ham ikki yo'nalish kuzatiladi: tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda va, asosan, aruz vaznida yozilgan she'riy asarlarda: *Ijzat bersangiz, ul zotdan maslahat so'rasam* (O.Yoqubov). *Ikki barg ta'rifin Erkin / She'rga solsa tong emas, / Ul bir tashbehli bargu / Ul biri tajnisli barg* (E.Vohidov) kabi.

Yuqori uslub taqozosi bilan *u* olmoshi *a/o* ga aylanadi va tushum kelishigida qo'llaniladigan *ani/oni* variantlari yuzaga keladi: *Asli ani ko'rmakka yo'q toqat, demishlar, / So'z desalar, hay-hay, parishon deydilarmu?* (M.Ali). *Baxt qushi uchgay falakda — kelmagaydir aylanib, / Otashin boshimga oni qo'ndirolmayman, gulim* (U.Azim).

Mumtoz she'riyatga hamohang bo'lgan matnlarda *u* ning *a/o* varianti, ayniqsa, qaratqich kelishikli so'zlarda faol uchraydi: *Nay misoli shim kiygan ul / Sandiqdayin tufli bilan, / Hurpayib turgan savatdek / Soch aning boshindadir* (E.Vohidov).

U olmoshining *a/o* variantlari jo'nalish va chiqish kelishigidagi olmoshli qurilmalar tarkibida ishtirok etishi ham mumkin. Faqat unda olmosh va kelishik

¹⁸Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги кишилик олмошларининг кўплик формалари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент, 1979.-№4.-Б.27-31.

qo'shimchasi orasida bita n tovushi orttiriladi: $a+n+ga$ / *ango*, $a+n+din$ / *ondin*: **Ondin** seni ko'p sevarmen, ey umri aziz (Navoiy).

Badiiy nutqda *u* olmoshining ko'plik shakli qo'shilgan tarixiyalar varianti ham uchraydi: *Necha daf'a **alarning** sulh va itoat bobida bergan puch va'dalariga inondim, biroq har safar ham mana shundoq g'ofil qoldim* (X.Sultonov).

Shunday qilib, uchinchi shaxsni ifoda etuvchi Bo'Olar bo'lgan *u* ning *ul*, *ani/oni*, *aning/oning*, *anga/ango*, *andin/ondin* singari kelishikli variantlari mavjud bo'lib, hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan ularning qo'llanilishi me'yoriy holat hisoblanmaydi. Ular faqatgina badiiy matnlarda qo'llanilib kelinmoqda va shu uslub doirasida xoslangandir¹⁹.

Kishilik olmoshlarning ko'plik shakli bo'lgan *biz* va *siz* olmoshlarining nutqda funksional stilistik ottenkalarining kengaya borganligi ularning ko'plikni anglatish imkoniyatlarini bir qadar cheklab qo'ymoqda. Shuning uchun ko'plikni ifodalash maqsadida ularga yana *–lar* qo'shilgan variantdan foydalaniladi: *Bizlar keldik. Sizlar o'tirib turinglar* kabi. *Ular* ning hozirgi adabiy tilimizda variantlari mavjud emas.

I.Suyarov o'z ishida dastlab olmoshlarni mustaqil so'z turkumi sifatida ajratish pirinsiplarini ishlab chiqdi. Bunda *u* olmoshlar grammatik xususiyatlari asosida emas, balki leksik–semantik belgilari bo'yicha bir turkumga birlashadi, degan fikrni bildiradi.

Olmoshlarning bir guruhga birlashishi esa asosan leksik–semantik belgisiga ko'ra bo'ladi. Ularning predmet, narsa belgi yoki miqdorni bildirmasligi balki ko'rsatishi, mavjudligiga ishora qilishi olmoshlarning boshqa so'z turkumlaridan farqlovchi umumiy belgi hisoblanadi²⁰. Bundan tashqari ular faqat yakka so'zlar o'rnidagina emas, shuningdek, so'z birikmalari, butun bir necha gapdan iborat yaxlit kontekst, matn o'rnida ham qo'llaniladi. *Shu sodiq bevaga aylang ehtirom. Hatto zeb – ziyinatni yulib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol. Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda. Bunchalar muhtaram bo'lmasdi ayol.* (A.Oripov, Tanlangan asarlar. I jild, 84-bet). Bu misolda shunday olmoshi yuqorida aytganimizdek birikma o'rnida (*sodiq beva birikmasi o'rnida*) kelmoqda. *Jahonda zar yashashni biladigan odamlar bor,-dedi,-Nabi muzlab yotgan ko'rpa qatiga sho'ng'ib. U bitta o'zi.* (X.Sultonov. Bir oqshom ertagi). *U, bizda, o'zi ... gapdagi u bizda o'zi* olmoshi ham yuqoridagi gapda

¹⁹Акрамов Т. Кишилик олмошларининг стилистик хусусиятларига доир // Лексика, стилистика ва нутк маданияти / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1980. –Б.85-91.

²⁰Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф.-Самарқанд, 2011.-16-6.

qandaydir. Javob tariqasida, ham ta'kid, kuchaytirish ma'nosini berishiga xizmat qilmoqda.

Olmosh so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan son jihatdan ozchilikni tashkil qiladi, biroq qo'llanish nuqtayi – nazaridan eng faol sanaladi. Olmoshlar ot, sifat, son ravish kabi turkumlar o'rnida kelib, ularning ham vazifasini bajaruvchi so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Og'zaki va yozma nutqda keng qo'llanilib, xilma-xil funksional vazifalarni bajaradi. Olmoshlar, asosan, denotativ ma'noda ishlatiladi. Shu bilan birga, boshqa so'z tukumlari ga nisbatan nafaol bo'lsada, ularni konotativ ma'nolarini ham ifodalab kela oladi. Ular nutqining ixchamligini taminlash bilan birga nutqning tejankor bo'lishiga olib keladi.

Bundan tashqari olmoshlar nutiqning xilma – xilligini shakllantiruvchi muhim lisoniy omillardan biridir. Shu jihatlariga ko'ra so'z turkumlari orasida o'z o'rniga ega bo'lib, alohida leksik–semantik xususiyatlari mavjud. Grammatikaga oid adabiyotlarning deyarli ko'pchiligida o'tgan asr adabiyotlarida ot, sifat, son kabi o'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'z sifatida olmoshlar e'tirof qilinadi. Ayrim adabiyotlarda ravish o'rnida qo'lanilishi yoki qo'lanilmasligi aniq ko'rsatilmay, olmoshlar ot, sifat, son kabi turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi. Ayrim adabiyotlarda olmoshlar ravish so'z turkumiga oid so'zlar o'rnida ham qo'llana olishi aytiladi. Ayrimlarda esa olmoshlarning ravish o'rnida qo'llanilishi yoki qo'llanmasligi aniq ko'rsatilmay olmoshlar ot, sifat, son kabi so'z turkumlari o'rnida qo'llanuvchi so'zlar sifatida ta'riflanadi. Lekin bularda ham ravish o'rnida qo'llanuvchi qachon, qayerda kabi so'zlar olmoshlar qatoriga kiritiladi²¹.

Keyingi yillar adabiyotlarda maqola va monagrafiyalarda olmoshlarning leksik-semantik, grammatik xususiyatlari, imkoniyatlari kengroq ochilib, turli atamalar bilan ham (“ichi bosh so'zlar, ishora so'zlar”) atalib kelinadi. Masalan, R.Sayfullayev, B.Mingliyeu va boshqalar tomonidan chiqqan “Hozirgi o'zbek adabiy tili” kitobida quyidagi fikrlar keltirilmoqda. “Ma'lumki, so'zlar ma'naviy belgisiga ko'ra uch turga bo'linadi”.

- a) Mustaqil ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);
- b) Bo'sh-ishora ma'noli so'z (olmosh);
- c) Yordamchi ma'noli so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, ko'makchi fe'llar).

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O'zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo'rma-zo'rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o'rnida qo'llanuvchi so'z” sifatida o'ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe'l, ravish,

²¹Mirzayev.M. Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent, 1962, 122-bet.

taqlid, undov, gap va hatto matnni olmashtira olish, ularga ishora etish xususiyatlari hisobga olinmagan. Darslikda yuqoridagi fikrlar isbotlanib, *men, sen, u, biz, siz, ular* shaxsga *kim, nima, bu, ana, mana bu* kabi olmoshlar predmetga, *qanday, shunday, bunday* kabilar belgiga, *buncha, shuncha, qancha* kabilar miqdorga, *qachon, qachon paytga, qayer o'ringa, shunday bo'lmoq, qanday qilmoq* kabi harakat-holatga ishora qilish aytiladi. Hech bir so'zni almashtirmasdan kelishi ham misollar yordamida berilgan. *Kim mehnat qilsa, u rohat topadi. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. Nima qilsam ham men o'zim bilaman. Hamma mehmonlar biznikida. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o'zlik olmoshi hech bir so'zni almashtirmagan. Fikrlardan ko'rinadiki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so'zni almashtirib, uning o'rnida kelavermaydi. Bu holat ham olmoshlarning o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlarini ifodalaydi. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish kerakki, arab tilshunosligida olmosh alohida so'z turkumida berilmagan, balki har bir so'z turkumi ichida "yashirin ma'noli so'z", zamirlar sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Masalan, kitob, daftar-aniq ma'noli ot bo'lsa, *men, sen, kim yashirin ma'noli ot (zamid ot) dir. Yoki oq, qizil, chiroyli ma'lum ma'noli sifat hisoblansa, bunday, shunday, kabilar "zamid sifat" dir*²².

Olmoshlarning leksik – semantik xususiyatlaridan biri shuki, ular shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy ma'noni anglatadi. Olmoshni bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi. Olmoshlarda umumiylik juda kuchli darajada bo'ladi. Masalan, *bu* so'zi kontekstdan tashqaridan olinganda uning ma'nosi juda umumiy mavhum xarakterga ega bo'ladi. *Bu daraxt bo'lishi ham mumkin, bu odam bo'lishi ham mumkun, bu hayvon bo'lishi ham mumkin* va hokazo.

Shuning uchun umumlashtirish, umumiylik haqida gapirganda olmoshlardan misol keltirishi bejiz emas. Ularning ma'nosi esa gapda o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan birgalikda aniqlanadi. *Tabiat buyuk bir shoir ekan. Yomg'irni yerga ranglar kamalagida solib otadi... yerga oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulgiradi. U chindan ham buyuk! Shogid bo'lsam edi, unga...* (O.Matjon "Iymon yog'dusi", 128-bet). *Hayriyat qonim yurtimizga to'kiladigan bo'ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan.* (S.Ahmad, Qorako'z majnun, 75-bet). Birinchi gapda *u* tabiat so'zi o'rnida, ikkinchi gapda shaxs ma'nosini ifodalamoqda. Bu ma'no esa gap ichida anglashilmoqda.

Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri ular ot, sifat, son kabilar o'rnida "shunchaki qo'shimchasi" so'zlar emasligidadir. Chunki biror ma'noni

²²Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zMU nashri, 2007. –380 b.

ifodalovchi soʻz boʻlgani holda, shu maʼnoning aynan oʻzini ifodalash uchun tilda yana qandaydir boshqa soʻzlarning boʻlishiga ehtiyoj boʻlmaydi. Olmoshlarning qoʻllanishi esa bir tomondan, ularning tilda turmush talabi bilan kelib chiqqan soʻzlar ekanini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, tilda muhim oʻrni, oʻziga xos xususiyati borligini koʻrsatadi. Shuning uchun ham olmoshlarning kelib chiqishi qadimiy sanaladi²³.

Olmoshlarda variantlikning vujudga kelishi davrlar oʻtishi bilan soʻz qurilishida vujudga keladigan fonetik-struktural oʻzgarishlar, jumladan, qisqaruv, tovush tushishi va ortirilishi kabi hodisalar bilan bogʻliq. Adabiy tilimizda ularning faqat bir variant meʼyorlashgan, boshqalari esa soʻzlashuv yoki badiiy nutqda saqlangan. Soʻzlashuv jarayonida davom etib kelinayotgani shevachilik, badiiy uslubda qoʻllanishi esa ularning personajlar nutqi individualligini saqlash hamda badiiy-estetik vazifani bajarishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Olmoshlararo va olmoshlarning boshqa til elementlari bilan sodir boʻladigan sinonimiyasi nutq jarayonida juda kata qulayliklar yaratadi. Bu jarayonda takrordan qochish, fikrni rang-barang tarzda ifoda etish masalaning bir tomoni boʻlsa, bu munosabatlar va oʻzaro almashinishlar tufayli turli-tuman stilistik maʼnolarning ifoda etilishi uning ikkinchi jihatidir²⁴.

Soʻzlashuv uslubida kishilik olmoshlari keng qoʻllanadi. Ular qoʻshimcha stilistik ottenkalarni avval soʻzlashuv jarayonida olib, keyin boshqa uslublarga koʻchishi mumkinligi *Kitobni oʻqidim – Kitobni **men** oʻqidim; Ovqatni yedim – Ovqatni **men** yedim* gaplari misolida tahlil qilingan.

Baʼzan nutqda *men* ni qoʻllamasa boʻlmaydi: *Menga nima deysan, bor, onangga ayt!* kabi. Olmoshsiz tinglovchi aytgan gap kimga qaratilganligi aniq boʻlmasdan qoladi: *Nima deysan, bor, onangga ayt!* Suhbatdoshning gapi soʻzlovchiga qaratilgan taqdirda ham ikki gapning maʼno ottenkasi ikki xil chiqadi. Birinchi gapda zarda qilish, achchiqlanish, norozilik ohangi bor. Ikkinchisida esa bu ekspressiv xususiyatlar yoʻq. Demak, birinchi gapdagi emotsional holatni ifoda etuvchi boʻlak *men* hisoblanadi.

Sen ning stilistik tabiati Nima deding? Sen nima deding? gaplari qiyosida ochib berilgan.

²³Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. –464 b.

²⁴Ўнғуров Р. Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар// Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар / Илмий мақолалар тўплами. –Самарқанд: СамДУ, 1981. –Б.4-21.

Biz olmoshining qo'llanishida esa o'ziga xosliklar mavjud. So'zlashuv uslubida uning kekayish, maqtanish, o'zini ko'rsatish kabi ottenkalari yuzaga chiqadi: *Chaqirtirgan ekansiz, mana, **biz** keldik. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, **biz** nima qilib yuribmiz. **Biz** ham bormiz, aka singari.* Biz endi qachon maktabga boramiz? Biz kimni yaxshi ko'ramiz – ayajonnimi, dadajonnimi? Kabi yosh bolalarga nisbatan qo'llanganda biz olmoshi sen ma'nosida qo'llanadi. Domla tomonidan bir talabaga yoki auditoriyaga qarata aytilgan. Biz darsga kelishni ham, dars tayyorlashni ham yig'ishtirib qo'ydik tarzidagi gaplarda biz ham sen, ham siz o'rnida ishlatiladi²⁵.

Siz olmoshining so'zlashuv uslubidagi nafrat, darg'azablik kabi stilistik ottenkalari *Siz hali odam bo'lib qoldingizmi? Siz uyga bemahal keladigan bo'libsiz, deb eshitdim, shu gap rostmi, o'g'lim?* gaplarida sen o'rnida ishlatilishi misolida tahlil qilingan. Kishilik-ko'rsatish olmoshi *u* ning so'zlashuv nutqida stilistik nozikliklari ko'zga tashlanmaydi. *Ular* ning *u* o'rnida qo'llanishida hurmat ottenkasi mavjud: *ular keldilar, ular aytdilar, ular dedilarki* kabi.

Kishilik olmoshlari men, sen, siz kabilarning qo'llanishi ilmiy nutq uchun xos xususiyat sanalmaydi. Lekin biz 1-shaxs birlik o'rnida qo'llanadi va kamtarlik ottenkasi yuzaga keladi.²⁶

Olmoshlarning leksik – semantik xususiyatlaridan biri shuki, ular shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo'lgan umumiy ma'noni anglatadi. Olmoshni bildiruvchi ma'no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o'zlari almashtiruvchi so'zlar kabi morfologik jihatdan o'zgaradi.

Olmoshlarda umumiylik juda kuchli darajada bo'ladi. Masalan, bu so'zi kontekstdan tashqaridan olinganda uning ma'nosi juda umumiy mavhum xarakterga ega bo'ladi. *Bu daraxt ham mumkin, bu-odam bo'lishi ham mumkin, bu hayvon bo'lishi ham mumkin va hokazo.* Shuning uchun umumlashtirish ummumiylik haqida gapirganda olmoshlardan misol keltirishi bejiz emas. Ularning ma'nosi esa gapda o'zi aloqador bo'lgan so'z bilan birgalikda aniqlanadi. *Tabiat buyuk bir shoir ekan. Yomg'irni yerga ranglar kamalagida solib otadi... yerga oshiqayotgan har uchqun qorga gul solib ulgiradi. U chindan ham buyuk! Shogirt bo'lsam edi, unga...* (O.Matjon "Iymon yog'dusi", 128-bet). *Xayriyat qonim yurtimizga to'kiladigan bo'ldi, - dedi u allaqanday quvonch bilan* (S.Ahmat Qora ko'z majnun 75-bet).

²⁵Ўзбек тили сўзlashuv нутқи синтаксис масалалари / СамПИ асарлари. Янгисерия, № 241. – Самарқанд: СамПИ, 1972. – 178 б.

²⁶Исабеков Б. Кишилиқ олмошларининг семантик-стилистик хусусиятлари ҳақида // ТошДУ илмий асарлари тўплами, № 648. – Тошкент, 1980. -Б.86-91.

Birinchi gapda *u* tabiat soʻzi oʻrnida, ikkinchi gapda shaxs maʼnosi ifodalamoqda. Bu maʼno esa gap ichida anglashilmoqda. Olmoshlarning leksik-semantik xususiyatlaridan biri ular ot, sifat, son kabilar oʻrnida “shunchaki qoʻshimchasi” soʻzlar emasligidadir. Chunki biror maʼnoni ifodalovchi soʻz boʻlgani holda, shu maʼnoning ayna oʻzini ifodalash uchun tilda yana qandaydir boshqa soʻzlarning boʻlishiga ehtiyoj boʻlmaydi²⁷.

Olmoshlarning qoʻllanishi esa bir tomondan, ularning tilida turmush talabi bilan kelib chiqqan soʻzlar ekanini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, tilda muhim oʻrni, oʻziga xos xususiyati borligini koʻrsatadi. Shuning uchun ham olmoshlar kelib chiqishi ham qadimiy sanaladi.

Hatto bizning tilimizda yaratilgan qadimiy yodgorliklardan sanalmish. Urxun-Enasoy yodgorliklarida ham olmoshlar uchraydi. *Bän-ben, män-men-min, sän-sen-sin, ol, ani, biz, siz, sizlär, olar, öz, kentü-kendü, bu, ol, oibu, sul, osu, sul, muni-muni, buni – buni, kim, nä, nenü, nelüq, neëük, naga, nädä, qatli, qani, qanta, qaçon, qayn, qamugʻ, qamagʻ, tari*.²⁸

Olmoshlarda umumiylik nihoyat darajada kuchliligini shundan koʻrsak boʻladiki, ot, sifat, son, ravish turkumlariga oid soʻzlar oʻzbek tilida bir necha ming miqdorni tashkil etadi. Shu soʻzlar oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar esa butun yasama shakllari bilan yuzdan oshmaydi. Shunday boʻlsa ham turli-tuman maʼnolarni ixcham va oson yoʻl bilan (oz soʻz yordamida) ifodalash imkonini beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar olmoshlar boʻlmaganda milyard miqdordan qancha miqdori olinganligini soʻzlash uchun har bir miqdor milyardgacha alohida sanalishi (soʻralishi) kerak boʻlar edi – bittami, ikkitami, uchdami yoki bitta oldingini va hakoza²⁹.

Olmoshlar boshqa soʻz turkumlaridagi soʻzlarga nisbatan juda keng qoʻllanilishi bilan xarakterlanadi. Ular maʼnosi va oʻziga xos xususiyatlari bilan ot, sifat, son kabi soʻz turkumlaridan butunlay farq qiladi va oʻziga xos turkumni tashkil etadi.

Olmoshlar oʻziga xos grammatik xususiyatlarga ham ega. Aslida ularni boshqa barcha soʻz turkumlaridan farqlarini va ularni alohida bir turkumga oid soʻz ekanligini koʻrsatuvchi, bu turkumga oid soʻzlarning hammasi uchun umumiy boʻlgan grammatik belgi yoʻq. Lekin olmoshlarning ayrim turlari yoki shu turdagi bir yoki

²⁷Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди... дис. автореф.-Самарканд, 2011.-36-б.

²⁸Rahmonov N., Sodiqov Q. Oʻzbek tili tarixi.- T: 2009, 128-129-betlar.

²⁹Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: OʻzMU nashri, 2007. –380 b

ba'zi olmoshlar o'zlariga xos ayrim grammatik xususiyatlarga ega. Bu grammatik xususiyatlar shu olmoshlarning semantik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, ot, turkumiga xos diyarli barcha so'zlar egalik qo'shimchalarini qabul qilgani holda, ot o'rnida keluvchi *men, sen, biz, siz* olmoshlari egalik qo'shimchalarini qabul qilmaydi.

Ot turkumidagi deyarli barcha so'zlar ko'plikni qabul qilgan holda *men, hech kim, hech nima* olmoshlari va qo'shimchani qabul qilmaydi. Tushum va qaratqich kelishiklari otlarda tushub qolishi, belgisiz qo'llanilishi mumkun.

Ammo olmoshlarda tushib qolmaydi, *daraxt bargi, mening uyim, tush ko'rdim, uni ko'rdim* va h.k. (Har bir olmosh turning o'ziga xos grammatik xususiyatlari quyidagilar).

Kelishik olmoshlari ot o'rnida kelib, otning so'rog'iga javob bo'ladi. Shu sababli uning grammatik xususiyatlari ko'p jihatdan otlarning grammatik xususiyatlariga o'xshaydi. Ular otlar kabi turlanadi. Turlanganda ularning tarkibida fonetik o'zgarish yuz beradi, *men+ni = meni, sen+ning=sening* tovush tushushi yuz beradi. U kishilik olmoshiga jo'nalish, chiqish, o'rin-payt kishiliklari qo'shilganda bitta "n" tovushi orttiriladi, unga, unda, undan³⁰.

Kishilik olmoshlari otlar kabi gapning bosh bo'laklari, ikkinchi darajali bo'laklari vazifasida keladi. *Men dunyoga kelgan kundayoq vatanim deb seni, uyg'ondim.* (H.Olimjon. 10 tomlik, birinchi tom, 217-bet). *Xudo bergan bu jannat bag'riga to'yib-to'yib qolmagan gumroh mendirman.* (T.Sodiqova. yoningdagi baxt. 20-bet). *Menda qanday gunoh bo'lsin. Bir bezavon jonivorman* (S.Ahmad.Qorako'z majnun, 65-bet). *Hammayoqda shodiyona, o'yin-kulgu, faqat mening ichimga chiroq yoqsa, yorimaydi.* (U.Nazarov. O'zgalar uchun, 13-bet).

³⁰Акрамов Т. Кишилик олмошларининг стилистик хусусиятларига доир // Лексика, стилистика ва нутқ маданияти / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1980. –Б.85-91.

XULOSA

Ma'lumki, ot, sifat, fe'l, ravish kabi turkumlar ichida olmoshlar ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi hisoblanadi. Olmoshlar qadim-qadimdan ishlatib kelinmoqda. Yozma yodgorliklarda so'z ifodasini topgan olmoshlar shundan dalolat beradi. Olmoshlar yozma yoxud og'zaki nutq jarayonida, asosan, denonativ ma'nosida ishlatiladi. Shu bilan birga, boshqa so'z turkumlariga nisbatan passivroq bo'lsa-da, ular kontativ ma'nolarni ham ifodalab kela oladi. Aniqlanishicha, olmoshlar nutq jarayonida xilma-xil funksional-uslubiy vazifalarni ado etadi. U, birinchidan, nutqning ixchamligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, nutqning tejankor bo'lishiga olib keladi.

Olmoshlarning uslubiy xususiyatlaridan biri shundaki, ayniqsa, og'zaki nutqda xilma-xil variantlar bilan qo'llanadi. Olmoshlarning variantdorligi ularning tarkibi kengaytirilgan shakli, tarkibi qisqartirilgan shaklidan iborat bo'lib, muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi, ya'ni xilma-xil ekspressiv emotsional vazifalarni bajaradi. Boshqa so'z turkumlariga nisbatan, olmoshlarning sof sinonimiyasi (shakllar xilma xil so'zlar) unchalik faol emas. Olmoshlar sinonimiyasi nutqning xilma-xilligini ta'minlovchi muhim lisoniy omillardan biridir. Chunki biror kengroq matnda bir xil olmoshni qo'llaverish so'zlovchi yoxud yozuvchi nutqning ta'sirchanligini ta'minlay olmaydi. Og'zaki yoki yozma nutq jarayonida olmoshlar xilma-xil funksional – uslubiy vazifalarni bajaradi.

Olmoshlar turli manbalarda, birinchidan, turli xil uslublarga xoslangan bo'ladi. So'zlashuv uslubiga xoslangan (fonetik shakli o'zgargan, yasovchi affekslarining o'zgarishini olmosh shakllarining olmosh so'zlariga aylanishi, olmoshlarning dialektal shakllari), publisistik asarlarga xoslangan olmoshlar shular jumlasidandir.

Olmoshlarning qo'llanish chostatasida eng yuqori o'rinni so'zlashuv va badiiy nutq egallaydi. Ammo ular anglatgan semantik – stilistik ma'nolar ko'lami badiiy matnda kengdir. Badiiy matnda barcha olmoshlarning ishtirok etishi adabiy asarlarda tasvir doirasining kengligi, ijodkorning badiiy mushohada quvvati bilan izohlansa, ayrim olmoshlardagi xoslanganlik ularning tarixiy variant sifatida tilimizda saqlanib kelayotganligi, ba'zilarida obrazlilik darajasining yuqori ekanligiga bog'liqdir.

Olmoshlarda umumiylik nihoyat darajada kuchliligini shundan ko'rsak bo'ladiki, ot, sifat, son, ravish turkumlariga oid so'zlar o'zbek tilida bir necha ming miqdorni tashkil etadi. Shu so'zlar o'rnida qo'llanuvchi olmoshlar esa butun yasama shakllari bilan yuzdan oshmaydi. Shunday bo'lsa ham turli-tuman ma'nolarni ixcham va oson yo'l bilan (oz so'z yordamida) ifodalash imkonini beruvchi vositalar hisoblanadi. Agar olmoshlar bo'lmaganda milyard miqdordan qancha miqdori olinganligini so'zlash uchun har bir miqdor milyardgacha alohida sanalishi (so'ralishi) kerak bo'lar edi – bittami, ikkitami, uchdami yoki bitta oldingini va hakoza.

Mavzuni o'rganish davomida quyidagicha umumiy xulosaga kelishimiz mumkin:

1. Ot, sifat, fe'l, ravish kabi turkumlar ichida olmoshlar ularning vazifasini bajaruvchi so'z turkumi hisoblanadi. Olmoshlar qadim-qadimdan ishlatib kelinmoqda. Yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan olmoshlar shundan dalolat beradi.

2. Olmoshlar yozma yoxud og'zaki nutq jarayonida, asosan, denonativ ma'nosida ishlatiladi. Shu bilan birga, boshqa so'z turkumlariga nisbatan passivroq bo'lsa-da, ular konnotativ ma'nolarni ham ifodalab kela oladi.

3. Aniqlanishicha, olmoshlar nutq jarayonida xilma-xil funksional- uslubiy vazifalarni ado etadi. U, birinchidan, nutqning ixchamligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, nutqning tejamkor bo'lishiga olib keladi.

4. Olmoshlarning uslubiy xususiyatlaridan biri shundaki, ayniqsa, og'zaki nutqda xilma-xil variantlar bilan qo'llanadi. Olmoshlarning variantdorligi ularning tarkibi kengaytirilgan shakli, tarkibi qisqartirilgan shaklidan iborat bo'lib, muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi, ya'ni xilma-xil ekspressiv emotsional vazifalarni bajaradi.

5. Boshqa so'z turkumlariga nisbatan, olmoshlarning sof sinonimiyasi unchalik faol emas. Olmoshlar sinonimiyasi nutqning xilma-xilligini ta'minlovchi muhim lisoniy omillardan biridir. Chunki biror kengroq matnda bir xil olmoshni qo'llaverish so'zlovchi yoxud yozuvchi nutqining ta'sirchanligini ta'minlay olmaydi.

6. Og'zaki yoki yozma nutq jarayonida olmoshlar xilma-xil funksional – uslubiy vazifalarni bajaradi. Olmoshlar turli manbalarda, birinchidan, turli xil uslublarga xoslangan bo'ladi. So'zlashuv uslubiga xoslangan (fonetik shakli o'zgargan, yasovchi affekslarining o'zgarishini olmosh shakllarining olmosh so'zlariga aylanishi, olmoshlarning dialektal shakllari), publisistik asarlarga xoslangan olmoshlar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 108 b
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –440 b
3. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ.— Тошкент: Шарқ, 1998. – 31 б.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ асрга интилоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. –352 б.

Ilmiy adabiyotlar:

5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. –464 b
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zMU nashri, 2007. –380 b
7. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (*Морфология*). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001. –164 б
8. Асқарова М. Олмошлар ҳақида баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. -№4.-Б.27-30.
9. Акрамов Т. Кишилиқ олмошларининг стилистик хусусиятларига доир // Лексика, стилистика ва нутқ маданияти / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 1980. –Б.85-91.
10. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1973. -320 б.
11. Алимуродов Х. Сурхондарё област кўнғирот шеваларида кўплик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1974. -№4. -Б.65-67.
12. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. –Toshkent: O'qituvchi, 1980. –448 b
13. Иброҳимов С. Айрим олмошларнинг эволюцияси масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент,1960.-№5.-Б.56-63.
14. Исабеков Б. Кишилиқ олмошларининг семантик-стилистик хусусиятлари ҳақида // ТошДУ илмий асарлари тўплами, № 648. – Тошкент, 1980. -Б.86-91.
15. Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги кишилиқ олмошларининг кўплик формалари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1979.-№4.-Б.27-31.

- 16.Каримов Ғ. 20-йиллар ўзбек адабий тилида олмошларнинг баъзи хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1972.-№4.-Б.50.
- 17.Каримов С. Олмошларнинг функционал-стилистик чегараланиши // Ўзбек тилининг грамматик қурилиши ва стилистикаси / Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 1992. –Б.80-85.
- 18.Комилова Х. Ўзбек тилида сон ва олмош. – Тошкент: Фан, 1953. -17 б.
- 19.Миртожиев М.Ҳозирги ўзбек тили.- Тошкент:Ўқитувчи,1992. –168 б.
- 20.Мухамедов С.Олмошларнинг лексик-морфологик структурасининг статистик анализи// Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1978.-№3.-Б.47-50.
- 21.Mengliyev B.Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Qarshi: Nasaf, 2004. -171 b.
- 22.Muhamedov S.Olmoshlarning leksik-morfologik strukturasining statistik analizi// O'zbek tili va adabiyoti.- Toshkent,1978.-№3.-Б.47-50.
- 23.Неъматов Ҳ. XII-XIII аср ёзма ёдгорликларида олмошлар // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1979.-№1.-Б.26-30.
24. Позилова Н. Иккинчи шахс олмошларининг прагматик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1999.-№3.-Б.41.
- 25.Суяров И. Шахс олмошлари тўғрисида баъзи мулоҳазалар / Труды Самаркандского госуниверситета. Новая серия. – Самарканд: СамГУ, 1963. Вып.124.–С.128-134.
- 26.Суяров И. Биз ва сиз олмошларининг маънолари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1963.-№5.-Б.37-43.
- 27.Суяров И. Шахс олмошларининг этимологияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.- Тошкент,1964.-№2.-Б.33-37.
- 28.Қўнғуров Р. Олмош стилистикасига оид айрим мулоҳазалар// Ўзбек тили стилистикасидан кузатишлар / Илмий мақолалар тўплами. –Самарқанд: СамДУ, 1981. –Б.4-21.
29. Юсупова О.Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Фил. фанлари номзоди... дис.автореф.-Самарқанд, 2011.-44-б.
- 30.Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi.- T: 2009, 128-129-betlar.

Elektron matnlar:

- 31.Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A.Menejment asoslari. Kasb- hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2002. –208 b.
- 32.Muhammad Ali. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. -448 b.
- 33.Murod T. Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi. Roman. – Toshkent: Sharq, 2001. -208 b.
- 34.Qahhor A. Asarlar, besh jildlik, birinchi jild. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1987. -336 b.; Ikkinchi jild, 1987. -368 b.; Uchinchi jild,1988. – 368 b.; To'rtinchi jild,1988. –336 b.; Beshinchi jild,1989. –272 b.